

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

BEKTASHEVA GULBAHOR RAYIMJONOVNA

**O‘ZBEK JADIDSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI TADRIJI
(BEGALI QOSIMOV ILMIY TADQIQOTLARI MISOLIDA)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

Bektasheva Gulbahor Rayimjonovnaning

О‘zbek jadidshunosligi taraqqiyoti tadriji (Begali Qosimov ilmiy tadqiqotlari
misolida) 3

Bektasheva Gulbahor Rayimjonovna

Development studies of uzbek jadidology (on the example of the scientific research
of Begali Kasimov) 27

Бекташева Гулбахор Райимжоновна

Развитие узбекского джадидизма (на примере научных исследований
Бегали Касимова) 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

BEKTASHEVA GULBAHOR RAYIMJONOVNA

**O‘ZBEK JADIDSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI TADRIJI
(BEGALI QOSIMOV ILMIY TADQIQOTLARI MISOLIDA)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil1567 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda «ZiyoNeb» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tojiboyeva Muqaddas Abdurahimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentalar:

Jo'rayev Habibullo Abdusalomovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasulova Umida Yo'ldosh qizi
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11" 01 soat 9.00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 150100, Farg'ona sh., B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; faks: (99873) 244-44-01; Web-site: www.fdu.uz; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (448 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; Web-site: www.fdu.uz; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "22" 12 kuni tarqatildi.

(2024-yil "22" 12 dagi 63 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.M.Muminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T.Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.n., professor

A.Z.Rahimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, filol.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida muayyan millat ma'naviy merosiga, ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, ilmiy maktabga asos solgan olimlarning ijodiy faoliyatini tadqiq etish ulkan ilmiy-nazariy ahamiyatga ega dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Zero, ilmiy maktab yaratgan olimlarning badiiy asar tahlili, matni ilmiy talqin qilish tamoyillarini o'rganish va ularda ilmiy-estetik tafakkurni shakllantirgan omillarni belgilash adabiyotshunoslik rivoji va takomiliga xizmat qiladi.

Dunyo adabiyotshunoslik ilmida muayyan olim ilmiy merosi hamda adabiy-estetik qarashlari yuzasidan izlanishlar olib borish, munaqqidning tadqiq usullari, matnga yondashish tamoyillari va adabiy manbani baholash mezonlari o'rganib kelinmoqda. Globallashuv jarayoni dunyo adabiyotshunosligida yuzaga kelgan ilg'or ilmiy-metodologik usullar asosida olim shaxsiyati va ilmiy merosi bo'yicha konseptual xulosalarga asoslangan tadqiqotlar olib borish zaruratini taqozo etmoqda.

O'zbek adabiyotshunosligida jadidlar faoliyati va adabiy merosini o'rganish borasida Begali Qosimovning tadqiqotlari ayricha ilmiy ahamiyat kasb etadi. Olim o'zining salkam qirq yillik ilmiy-ijodiy faoliyati davomida jadid adabiyoti bilan bog'liq muhim muammolarni g'oyat teran o'rgangan. Uning ilmiy tadqiqotlari nafaqat O'zbekiston, balki Turkiya, Ozarbayjon, Germaniya, Rossiya, AQSh adabiyotshunoslari orasida ham e'tirof etilgan. Jadidshunoslikka doir tadqiqotlari bilan bu sohani yangi bosqichga ko'tarib, uning jahon adabiyotshunosligida e'tirof etilishiga hissa qo'shgan olim Begali Qosimov ilmiy faoliyatini monografik tarzda o'rganish ilmiy zaruriyat hisoblanadi. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Ilm-fan bilan shug'ullanish, yangi kashfiyot va ixtirolar qilish igna bilan quduq qazishdek gap. Shunday ekan, bu mashaqqatli sohada fidokorona mehnat qilayotgan olimlarimiz mehnati tahsin va rag'batga munosib"¹. Shu ma'noda, o'zbek jadidshunosligining takomil bosqichlarini aniqlash, o'ziga xos xususiyatlarini yoritish, milliy jadidshunosligimiz taraqqiyotida B.Qosimov ilmiy maktabining ahamiyatini belgilash, uning o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. B.Qosimovning ilmiy biografiyasini yaratish, uning o'z tadqiqotlarida tayangan ilmiy-metodologik asoslarni aniqlash, ilmiy-adabiy qarashlari mohiyati, uslubidagi o'ziga xosliklar, jadid publisistikasi tadqiqidagi o'ziga xos yondashuv usullarini o'rganish milliy jadidshunoslik taraqqiyoti bosqichlarini haqqoniy ko'rsatishga xizmat qilishi bilan mazkur dissertatsiyaning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabr, PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев мамлакатимизнинг етакчи илм-фан намоёндалари, Фанлар академияси аъзолари, ҳукумат аъзолари, вазирлик ва идоралар ... билан 2016-йил 30-декабрь куни бўлиб ўтган учрашувда сўзлаган нутқи / Халқ сўзи, 2016 йил, 31 декабрь.

taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida Farmon va qarorlar, shuningdek, hukumatimizning boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarida ko‘rsatilgan topshiriq va ko‘rsatmalarni yuzaga chiqarishda mazkur tadqiqot ishi ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Shuningdek, 2023-yilning 11-dekabrida bo‘lib o‘tgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqbol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusida Xalqaro konferensiyada Prezidentimiz tomonidan belgilangan ko‘plab vazifalarning bajarilishiga ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi xarakterida yozilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda adabiyotshunoslik ilmida taniqli olimlar faoliyati, ularning shaxsiyati, adabiy-estetik qarashlariga tayanib, ularning ilmiy asarlarini tadqiq qilishga qaratilgan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan².

O‘zbek adabiyotshunosligida ham Miyon Buzruk Solihov³, Otajon Hoshim⁴, Vadud Mahmud⁵, Abdurauf Fitrat⁶, Abdurahmon Sa‘diy⁷, Aziz Qayumov⁸ kabi olimlarning faoliyati alohida tadqiqot mavzusi sifatida tekshirilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida professor B.Qosimovning ilmiy faoliyati uning o‘zbek jadid adabiyoti tarixini tadqiq etish, jadidshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik kabi sohalaridagi ilmiy mulohazalari va amaliy faoliyati ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan e‘tirof etilgan. Olim haqida turli jurnal va gazetalarda O.Sharafiddinov, A.Oripov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizayev, Q.Yo‘ldoshev va boshqalarning qator maqolalari e‘lon qilingan⁹. Olimning yorqin xotirasiga

² Ли бен Хун. Проблема художественного образа в литературной критике В.Г.Белинского: Автореф. дисс....канд. филол.наук. – М., 1999; Егоров П. А., Розанов В. В. – литературный критик: проблематика, жанровое своеобразие, стиль: Автореф. дисс....канд.филол.наук. – М., 2002; Шяхутова С. Проблемы взаимодействия фольклора и литературы в научном наследии Д.С. Лихачева: Курбонова С.И. Абдулгани Мирзоев – исследователь истории персидского-таджикской литературы: Автореф. дисс....канд.филол.наук. – Душанбе, 2007; Asilsoy Abdükarim. Türk Modernleşmesi Öncülerinden Fuat Köprülü: Hayati, Eserleri va Fikirleri(yaumlanmamiş doktora tezi). – Istanbul, 2008. Автореф. дисс....канд.филол.наук.–Майкоп, 2010; Бреева Т.Н. Литературно-критическая деятельность М.А. Волошина: Автореф. дисс....канд.филол.наук. –Казань, 1996; Худойдодов А.Холик Мирзозода и таджикское литературоведение XX века: Автореф. дисс....д-ра филол.наук. – Душанбе, 2015.

³ Турдиев Ш. Меросимизнинг бир саҳифаси (1989). Миёнбузрук Солихов ҳаёти ва ижодининг ўрганилишига доир тадқиқот. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan.merosimizning-bir-sahifasi-1989/>

⁴ Ёқубов И. Отажон Ҳошимнинг адабий-танқидий фаолияти: Филол. фан.ном. дисс. – Тошкент, 1993.

⁵ Каримов Б. Вадуд Маҳмуднинг 20-йиллар танқидчилигидаги ўрни: Филол.фан.номзодлик дисс.автореферати. – Тошкент, 1995.

⁶ Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол.фанлари док. дисс. – Тошкент, 1996.

⁷ Мўминова Н. Абдурахмон Саъдийнинг адабиётшунослик мероси: Филол.фан. номз... дисс. – Тошкент, 2002.

⁸ Адизова О. Адабиётшунос Азиз Қаюмов тадқиқотларида биографик методнинг ўрни: Филол. фан. фалсафа док... (PhD) дисс. – Тошкент, 2004.

⁹ Орипов А., Шарафиддинов О. Излаган олим бўлади/Ватан, 1992 йил 23-30 декабрь, 13-сон. Ш.Юсупов, У.Долимов, Ш.Ризаев. Фидокор олим /Ватан,1994 йил 11-сон. Қ. Йўлдошев. Олимнинг олами /Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2002 йил 35-сон, 23-август. Б.Каримов. Устоз ибрати /Моҳият, 2002 йил 40-сон, 11 Октябрь.

bag'ishlab "So'nggi jadid qissasi"¹⁰ kitobi chop etildi. Unda B.Qosimovning ustozlari, hamkasb do'stlari, adabiyotshunos olimlar, shogirdlar, oila a'zolarining olim bilan bog'liq yorqin xotiralari, ilmiy izlanishlarining mazmun-mohiyati, serqirra ijodning muayyan qirralari, o'ziga xos xususiyatlari haqidagi maqolalar jamlangan. Mavjud maqolalar B.Qosimov ilmiy-ijodiy merosini yaxlit baholash maqsadiga yo'naltirilmagan. Shu sabab adabiyotshunosning ilmiy faoliyati, asarlari tadqiqi, adabiy-estetik qarashlarini o'rganish, tizimli tahlil etish soha rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, B.Qosimovning ilmiy biografiyasini tahlil qilish, uning o'z tadqiqotlarida tayangan ilmiy-metodologik asoslarni aniqlash, ilmiy va ijodiy merosining qimmatini xolis belgilash, hech shubhasiz, adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, buxorolik tadqiqotchi U.To'rayeva tomonidan B.Qosimovning hayoti va biografiyasi bo'yicha yozilgan dissertatsiya jadidshunos olimning ilmiy faoliyatini o'rganishga bo'lgan ilk qadam bo'ldi. U.To'rayevaning "O'zbek jadid adabiyotini o'rganishda Begali Qosimov tadqiqotlarining o'rni" dissertatsiyasida, asosan, obyekt sifatida B.Qosimovning «Mirmuhsin Shermuhamedov», «Izlay-izlay topganim», «Milliy uyg'onish» monografiyalari va jadidchilik adabiyotiga oid ayrim ishlari tanlab olingan. Tadqiqotning 1-bobida olim biografiyasiga va tarjimayi holiga oid ma'lumotlar batafsil keltirilgan. O'zbek va xorijdagi olimlarning B.Qosimovga munosabati ham keng aspektda yoritilgan. Mazkur ishda munaqqidning "Izlay-izlay topganim" risolasini mazmun mundarajasini tadqiq etish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar jamlangan bo'lib, bizning dissertatsiyamizda aynan shu risoladagi davrning adabiy-estetik tafakkuri haqidagi olimning qarashlarini tadqiq etishni ilmiy ishning asosiy konsepsiyasi sifatida o'rgandik. Bundan tashqari, tadqiqotimizda olim ijodini ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-adabiy aspektlarining tadqiq etilishi har ikki dissertatsiyaning bir-biridan tubdan farqlanishini asoslaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi "O'zbek adabiyotini o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek jadidshunosligi taraqqiyotida professor B.Qosimov ilmiy tadqiqotlarining o'rni, olimning, umuman, adabiy-tarixiy jarayonga, xususan, muayyan jadid adiblarning hayoti va ijodiga yondashuv usullari va badiiy asarni baholash prinsiplarini ko'rsatib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

B.Qosimov o'zbek jadidshunosligi bo'yicha ilmiy maktab yaratganligi hamda bu boradagi ilmiy qarashlari bilan millat badiiy-estetik tafakkurining takomiliga hissa qo'shganligini asoslash;

olimning ilmiy qarashlari jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-adabiy aspektlarini tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etishini belgilash;

B.Qosimovning jadid ijodkorlarining badiiy asarlari, publitsistik maqolalari borasidagi qarashlarini tahlil qilib, ularning ilmiy-nazariy ahamiyatini yoritish;

¹⁰ Сўнги жадид қиссаси. Беғали Қосимов замондошлари хотирасида. – Тошкент: Турон-иқбол, 2012.

jadid adabiyoti va matbuotiga xos xususiyatlarni tayin etishda B.Qosimov asarlari o‘rnini ko‘rsatish;

olimning adabiy-estetik qarashlaridagi o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, uning tadqiq usullari va talqin prinsiplaridagi betakrorlikni ko‘rsatish orqali milliy jadidshunoslik taraqqiyotida Begali Qosimov va uning ilmiy maktabi tutgan o‘rinni belgilashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Begali Qosimovning “Maslakdoshlar”, “Ma’rifat darg‘alari”, “Ismoilbek Gaspirali”, “Abdulla Avloniy”, “Salom, kelajak”, “Izlay-izlay topganim”, “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik” va boshqa asarlari olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek jadidshunosligi takomilida prof. B.Qosimov ilmiy faoliyatining ahamiyati nimalardan iborat ekanligini, olimning tadqiqotchiligidagi o‘ziga xoslikni asarlari tahlili orqali ko‘rsatib berish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda sistem-struktural, germenektivik, qiyosiy-tipologik, biografik, tarixiy-funksional tadqiq usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

B.Qosimov jadid adabiyoti va ushbu davr adabiy-tarixiy jarayoniga oid muhim ilmiy masalalar bo‘yicha puxta tadqiqotlar olib borishi, bir qator jadid ijodkorlarining tarjimai hollarini ilmiy asosda tiklashi, ularning hayoti va ijodiy merosini o‘z ilmiy konsepsiyasi nuqtayi nazaridan chuqur o‘rganib, asarlarini tanqidiy tahlil hamda tabdil orqali nashrga tayyorlashi bilan ushbu yo‘nalishda o‘ziga xos ilmiy-tadqiqot maktabini shakllantirgani asoslangan;

Professor B.Qosimov ilmiy-nazariy qarashlarining adabiyotshunoslik metodologiyasi, milliy adabiy merosni zamonaviy talqin etish hamda zamonaviy estetik yondashuvlarga asoslangan yetakchi tamoyillari belgilanib, o‘zbek jadidshunosligi taraqqiyotiga qo‘shgan ulushi asarlarining chuqur tahlili, manbashunoslik asosidagi qiyosiy kuzatishlar orqali ko‘rsatib berilgan, olimning jadid she’riyati, nasri, publisistikasi, dramaturgiyasi, teatrchiligi kabi sohalarga bag‘ishlangan tadqiqotlarida uning individual mahorati innovatsion yondashuv, analitik fikr va tizimli metodologik izlanishlarda namoyon bo‘lgani dalillangan;

B.Qosimovning jadid adiblari asarlarini ilmiy asoslangan biografik, puxta tanqidiy-qiyosiy, chuqur sotsiologik, keng ko‘lamli kontekstual tahlil metodlaridan o‘rinli foydalanganini olim asarlarini tekshirish orqali isbotlangan;

olimning qaltis sharoitda ham jadid adiblari ijodi va faoliyatini o‘rganish hamda baholashda haqqoniylik, tizimlilik, ilmiylik, xolislik yo‘lidan borgani dalillanib, jadid publisistikasiga oid qarashlari, uning vaqtli matbuot va jadid adabiyoti munosabatlari borasidagi qarashlari haqqoniy, asosli ekani turli janrlaridagi asarlari asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

B.Qosimovning ilmiy tadqiqotlari o‘zbek jadidshunosligi taraqqiyotida o‘ziga xos bosqich bo‘lgan. Olim topib ilmiy muomalaga olib kirgan jadidlarning asarlari va ijtimoiy-ma’rifiy faoliyati milliy jadidshunoslikni boyitgan. Uning matnshunos

sifatida nashrga tayyorlagan asarlari jadid adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligiga doir qiymatli ilmiy dalil va ma'lumotlardir;

olimning ilmiy tadqiqotlarining o'ziga xosligi, tahlil usullari va talqin prinsiplari yuzasidan chiqarilgan xulosalar jadidshunoslik bo'yicha qilinadigan keyingi taqiqotlarga asos bo'lib xizmat qiladi;

B.Qosimovning asarlari o'zbek adabiyoti tarixi, jadid adabiyoti, XX asr adabiyoti kabi fanlar; behbudiyshunoslik, avloniyshunoslik, fitratshunoslik singari sohalarda yaratiladigan monografiya, darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi ko'rsatilgan;

B.Qosimovning jadid adabiyotshunosligi mutaxassisi, matnshunos va nazariyotchi olim sifatidagi faoliyatining eng muhim qirralari ko'rsatib berilgani jamiyat ahlining ma'naviy-axloqiy hamda badiiy-estetik takomili ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uning asarlari yosh avlod tafakkurini boyitishda alohida o'rin tutishi aniqlangan, jadid bobolar jasoratidan yosh avlodni boxabar etish orqali ularda millatsevarlik tuyg'ularini shakllantirishga kuchli ta'sir ko'rsatishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda masalaning aniq qo'yilgani, qo'llanilgan usullar hamda yuzaga chiqarilgan fikr va qarashlarning sistem-struktural, germenevtik, qiyosiy-tipologik, sotsiologik, biografik metodlar orqali asoslangani, ilmiy xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani orqali ko'rsatib berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalardan jadid adabiyotini o'rganishning keyingi bosqichlarida foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot xulosalari jadidshunoslik yo'nalishida yozilajak monografiyalar, tuzilajak darsliklar uchun ilmiy-nazariy asos bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy xulosalardan adabiyotshunos va munaqqidlarning shu yo'nalishdagi ilmiy faoliyatini yo'lga qo'yishda istifoda etish mumkin. Ushbu dissertatsiya g'oyalari jadidshunoslik bo'yicha o'tilajak saboqlar, metodik ishlanmalar, ko'rsatmali qurollar tayyorlashda amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

B.Qosimov jadid adabiyoti va ushbu davr adabiy-tarixiy jarayoniga oid muhim ilmiy masalalar bo'yicha puxta tadqiqotlar olib borishi, bir qator jadid ijodkorlarining tarjimai hollarini ilmiy asosda tiklashi, ularning hayoti va ijodiy merosini o'z ilmiy konsepsiyasi nuqtayi nazaridan chuqur o'rganib, asarlarini tanqidiy tahlil hamda tabdil orqali nashrga tayyorlashi bilan ushbu yo'nalishda o'ziga xos ilmiy-tadqiqot maktabini shakllantirganligiga oid xulosalardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida bajarilgan F3-2016-09081165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" (2017-2020 yy) fundamental loyihasida foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022-yil 29-iyuldagi 175-son ma'lumotnomasi). Natijada olimning jadidshunoslikka doir tadqiqotlarida til va

adabiyotni taraqqiyotiga oid ilgari surilgan fikr va mulohazalaridan foydalanish loyihaning ilmiyligi hamda mukammalligini ta'minlagan;

olimning qaltis sharoitda ham jadid adiblari ijodi va faoliyatini hamda baholashda haqqoniylik, tizimlilik, ilmiylik, xolislik yo'lidan borgani dalillanib, jadid publisistikasiga oid qarashlari, uning vaqtli matbuot va jadid adabiyoti munosabatlari borasidagi qarashlari haqqoniy, asosli ekanligiga oid xulosalar hamda dissertatsiya materiallaridan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida bajarilgan F3-2016-09081165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" (2017-2020 yy) fundamental loyihasida foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022-yil 29-iyuldagi 175-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha Qoraqalpoq tilining yangi alifbosi va imlo qoidalariga muvofiq holda ona tili va adabiyot o'qitish metodikasini chuqur ilmiy asosda takomillashtirish, o'quv jarayonini tizimli yo'lga qo'yish va ushbu sohani yangi nazariy hamda amaliy mezonlar bilan boyitishga erishdi;

professor B.Qosimov ilmiy-nazariy qarashlarining adabiyotshunoslik metodologiyasi, milliy adabiy merosni zamonaviy talqin etish hamda zamonaviy estetik yondashuvlarga asoslangan yetakchi tamoyillari belgilanib, o'zbek jadidshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan ulushi asarlarining chuqur tahlili, manbashunoslik asosidagi qiyosiy kuzatishlar orqali ko'rsatib berilgan, olimning jadid she'riyati, nasri, publisistikasi, dramaturgiyasi, teatrchiligi kabi sohalarga bag'ishlangan tadqiqotlarida uning individual mahorati innovatsion yondashuv, analitik fikr va tizimli metodologik izlanishlarda namoyon bo'lishiga oid materiallaridan Andijon viloyati teleradiokanalining ilmiy-ommabop "Najot bilimda", "Xazinamsan kitob", "Ma'naviyat qalb ko'zgusi" ko'rsatuvlari senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Andijon viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 10-24/193-son ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuvlarning ilmiy dalillarga boy bo'lishini ta'minlagan, xususan, B.Qosimov ilmiy-nazariy qarashlarining manbalari, tadriji va yetakchi tamoyillari, o'zbek adabiyotshunosligi va jadidshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan munosib ulushi, tadqiqotlarning umumestetik talablarga javob berishi nazariy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 18 ta, 9 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan 6 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi “O‘zbek jadidshunoslik maktabining shakllanishi” deb nomlanib, u ikki faslni o‘z ichiga olgan. Bobning **“Jadid adabiyotiga oid qarashlar tadriji”** faslida o‘zbek jadidshunosligining shakllanishi, yuzaga kelish omillari, takomil bosqichlari hamda jadid adabiyotshunosligining shakllanishidagi mafkuraviy xilma-xillik kabi masalalar yoritiladi.

Tarixan o‘zbek jadidshunosligi taraqqiyoti uch xil ijtimoiy tuzum sharoitida sodir bo‘ldi, uning yuzaga kelish omillarini davr siyosati bilan bog‘lash mumkin: rus chorizm istibdodi, mafkuraviy zo‘ravonlikka tayangan sovet tuzumi va istiqloq davri kabi turfa ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy-mafkuraviy sharoitda milliy jadidshunoslik turli o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ldi.

O‘zbek adabiyotshunosligi rivojida jadid adabiyotshunosligi maktabi ham alohida fasl bo‘la oladi. Uni davrlarga bo‘lib xronologik tadqiq etish, ijtimoiy taraqqiyot omillarini, mazmun-mundarijasini belgilash adabiyotshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni hisobga olgan holda jadid adabiyotshunosligini quyidagi uch jihatdan tasniflab o‘rganish mumkin:

1. Chor mustamlakasi davri ilk jadid adabiyotshunosligi.
2. Sho‘rolar davri jadid adabiyotshunosligi.
3. Istiqloq davri jadid adabiyotshunosligi.

Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori, Hoji Muin, Mirmuhsin Shermuhammedov, Abdulla Qodiriy, Hamza, Cho‘lpon kabi ijodkorlar nafaqat shoir va yozuvchi o‘rnida, balki adabiyotshunos, tanqidchi olim sifatida vaqtli matbuotda chop etilgan kichik xabardan to yirik asarlargacha o‘z munosabatini bildirib bordilar. Jumladan, Behbudiyning “Haq olinur, berilmas!”, “Tanqid saralamoqdur”, “Yoshlarga murojaat”, Avloniyning “Jaholat”, “Safohat balosi”, M.Shermuhammedovning “Buxoro mikroblari”, Cho‘lponning “Adabiyot nadir?” singari shov-shuvli maqolalarida jadidlarning faoliyatiga yo‘l-yo‘lakay, ma‘lum darajada, munosabat ham bildirdilarki, bularni jadidshunoslik borasidagi ilk qadamlar, deyish mumkin. Abdurauf Fitratning badiiy asarlaridan tashqari, adabiyotshunos olim sifatida jadid adabiyoti, xususan, hamzamon, hammaslak bo‘lgan ijodkorlarga munosabati jadid adabiyotshunoslik ilmida alohida ahamiyatga ega. Jumladan, Fitrat “Yopishmagan gajaklar” maqolasida Jalil Boybo‘latovning “O‘zbek adabiyoti namunalari” kitobiga qaratilgan tanqidiy fikriga javob tariqasida “maqolani yozayotganingizda xalq orasidagi “Ko‘zim ko‘rmaydur” o‘yinidagi boladay o‘zingizni tutgansiz”, – deya keskin munosabat bildiradi.

XX asrning 30-yillarida O.Hoshim, S.Husayn, Oybek, H.Olimjon, Uyg‘un, Z.Said, O.Sharafiddinov kabi shoir, tanqidchi va publitsist, adabiyotshunos olimlar vakillari yetishib chiqdi. Bu davrda ham jadid adabiyotiga munosabat nazardan

chetda qolmaydi. Aksariyat tahlil va talqinlar sho‘rolar mafkurasi doirasida amalga oshiriladi. Masalan, tanqidchi Sotti Husayn A.Qodiriy ijodiga munosabatda biryoqlamalikka yo‘l qo‘yganligi ma‘lum. Bu haqda I.Sulton “hali tayyorgarligi yetarli bo‘lmagani holda, tarix talabiga binoan, juda katta va muhim masalalarni mustaqil hal etish majburiyati oldida qolgan avlodga mansub yosh Sotti Husayn asarlaridagi bu xato va kamchiliklarni mensimaslik xato bo‘lganidek, ularning obyektiv sabablarini unutib qo‘yish ham xato bo‘lar edi,” – deydi¹¹. 1931-yilda olimning “O‘tkan kunlar” nomli tanqidiy kitobi chop etiladi. Miyon Buzruk Solihov “O‘zbek adabiyotida millatchilik ko‘rinishlari” (1933) kitobida A.Qodiriyning talantini rad etib, uni “O‘tkan kunlar” romanida chorizmning mustamlakachilik siyosatini targ‘ib qilish”da ayblaganda, Sotti Husayn o‘sha yiliyoq maqola qilib, “O‘tkan kunlar” o‘zbek adabiyoti maydonida birinchi va yaxshi yozilgan roman, u shubhasiz, go‘zal va nafis bir asar... A.Qodiriy kuchli yozuvchi, kuchli adib. Menimcha, bizning undan yangi narsalar, “O‘tkan kunlar”ga qaraganda bizga yaqinroq asarlar kutishimiz mumkin”, – deb yozgan edi¹². Ikki fikrni qiyoslasak, Sotti Husaynning “O‘tkan kunlar” asarida romanning yuksak saviyadagi asar ekanligini keyinroq tan olgani bir paytlar asarga sho‘ro mafkurasi talabidan kelib chiqqan holda yondashganini bildiradi. Demak, jadid adabiyotiga noxolis munosabat bildirilganda ham, asl asarning haqiqiy bahosi bilib turilgan. Fikrimizni yuqoridagi misollar ham tasdiq etadi.

A.Sa‘diyda ham adabiyotshunos sifatida jadid ijodkorlarga baho berishda biryoqlama fikrlagan o‘rinlar uchraydi. Jumladan, “O‘zbek yosh shoirlari” maqolasida qator noxolis fikrlar ko‘zga tashlanadi. Shunday bo‘lsa-da, ushbu maqola o‘z davrida adabiy tanqidchilik rivojiga turtki berib, unga javoban yozilgan tanqidiy maqolalarning yaratilishiga sababchi bo‘ldi. Masalan, A.Sa‘diyning Fitrat ijodining noo‘rin tanqidiga munosabat sifatida Vadud Mahmudning “Adabiy tanqidga bir nazar” maqolasi yuzaga keldi. V.Mahmud A.Sa‘diyning Fitrat haqidagi “shoirlik shuhrati fevral inqilobi bilan yo‘ldoshligidir” degan fikrini noo‘rin deb hisoblaydi, hatto, millat shoiriga bunday baho berilishini “jaholat”, “unutilmas bir gunoh” deb biladi.

Jadidshunoslik borasida faoliyat ko‘rsatgan olimlarning turlicha yondashuvida mualliflarning shaxsiyatidagi o‘ziga xoslikdan tashqari, jamiyatda hukmron bo‘lgan qarashlar tizimi ham muhim o‘rin tutganligini qayd etish lozim.

Birinchi bobning **“Ilmiy-estetik tafakkurning yangilanishi”** deb nomlangan ikkinchi faslida istiqloq davri jadidshunosligining o‘ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot tamoyillari yoritilgan. Ma‘lumki, manbalarda jadid adabiyotining xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgani ham alohida e‘tirof etiladi. Jumladan, Usmon Xo‘ja o‘g‘li, Mustafo Cho‘qay, Zakiy Validiy To‘g‘on, Abil Zavqiy, I.To‘lqin, Sattor Jabbor, E.Olvort, A.Beningsen, E.Uimbush, R.Barret, D.Dontgomeri, G.Morris, Fuod Kuprulizoda kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida XX asr o‘zbek adabiyoti, xususan, jadid so‘z san‘ati tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlari yetishib chiqdi¹³.

¹¹ Назаров Б. ва б. Ўзбек адабий танкиди тарихи. – Тошкент: Тафаккур қаноти, 2012.– Б. 101.

¹² Назаров Б. ва б. Ўзбек адабий танкиди тарихи. – Тошкент: Тафаккур қаноти, 2012. – В.101

¹³ Qarag‘ang. Мирзаева З. XX ўзбек адабиётининг хорижий тадқиқотчилари. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2016; XX asr ўзбек адабиётининг Америкада ўрганилиши. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – Б. 7, 13.

Mustaqillik davrigacha E.Karimov, N.Karimov, B.Qosimov, A.Aliyev¹⁴ kabi olimlar jadid adabiyotini o'rgangan bo'lsalar, istiqloldan keyin bu saf juda kengaydi. O.Sharafiddinov, B.Nazarov, I.G'aniyev, Sh.Rizayev, U.Normatov, H.Boltaboyev, U.Jo'raqulov, B.Karimov, D.Quronov, N.Afoqova, Y.Solijonov va boshqalar jadid adabiyotini mafkuraviy tazyiqlardan holi ravishda o'rgandilar¹⁵. Ya'ni ilmiy-estetik tafakkurning yangilanishi mana shu olimlar yaratgan tadqiqotlarda o'z aksini topadi.

Jumladan, "Ozod Sharafiddinov 60-70-yillardayoq Cho'lpon va Fitrat ijodi borasida goh pinhon, goh oshkor o'z fikrlarini ayta boshlagan munaqqid"¹⁶ sifatida qator ishlarni amalga oshirdi. 1968-yilda "Tirik satrlar" majmuasiga muharrirlik qildi. Unga Cho'lpon, Fitrat, Muxtorxon, Elbek, Botu ijodlaridan namunalar kiritilgan edi.

Jadidshunoslik mustaqillik munosabati bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Jadid adiblari bosib o'tgan murakkab hayot va ijod yo'lini millat va Vatan manfaati nuqtai nazaridan tekshirish, o'rganish va xolis tahlil qilish ehtiyoji bor ediki, O.Sharafiddinovning "Cho'lpon", "Cho'lponni anglash", N.Karimovning "Cho'lpon", "Usmon Nosir", "Usmon Nosirning so'nggi kunlari" kitoblari jadid adiblari vakillarining hayoti va ijodini monografik o'rganishning dastlabki namunalari sifatida, qolaversa, ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan ma'lumotlar, jiddiy masalalar yuzasidan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgani bilan muhim manbalar sirasiga kiradi.

Jadid adabiyotshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shgan zahmatkash olim Begali Qosimov jadid adabiyotining bilimdoni sifatida mazkur davrga oid ko'plab fidoyi ijodkorlar merosini sinchiklab o'rganib, ilmiy manbalarni yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyitdi. Adabiyotshunos olim, Ozod Sharafiddinov uni "so'nggi jadid" deya to'g'ri ta'riflagan edi. B.Qosimov ilmiy-ijodiy faoliyatining asosiy qismi jadid adabiyoti olamini keng, chuqur tadqiq qilishga bag'ishlangan. Jadidchilik davri va bu davrdagi adabiy hayot ustoz-olimning doimiy diqqat markazida bo'lgan. Ya'ni, olim asosiy ilmiy faoliyatini XX asr boshlari o'zbek adabiyoti hamda uning mundarijasini belgilashga qaratadi va shu yo'nalishda o'zining ilmiy maktabini yaratdi. B.Qosimov bu davrdagi adabiy hayot hamda uning mazmun-mohiyati haqidagi yangi ilmiy qarashlar egasi sifatida o'zbek jadidshunosligiga o'zgacha ruh

¹⁴ Каримов Э. Развитие реализма в узбекской литературе. – Ташкент: Фан, 1975; Қосимов Б. Излай-излай топганим. – Тошкент, 1981; Алиев А. Адабий мерос ва замонавийлик. – Тошкент, 1983.

¹⁵ Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Тошкент: Ёзувчи, 1994; Назаров Б. Фитрат маърифатининг гултожи // Шарқ юлдузи. – 1991. № 8. –Б. 8–9; Каримов Н.Ф. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиклол мафкураси: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент, 1993; Ғаниев И. Фитрат, эътиқод, ижод. – Тошкент: Камалак, 1994; Ризаев Ш.Т. Ўзбек жаҳид драматургиясининг шаклланиш манбалари: Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 1995; Норматов У. "Ўткан кунлар" хайрати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшunosлиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1996; Ғаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент, 1998; Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Каримов Б. Жаҳид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. – Тошкент: Университет, 2000; Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002; Каримов Б. Ўзбек адабиётшunosлигида талқин ва таҳлил муаммоси (қодирийшunosлик мисолида): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002; Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2004; Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006; Афоқова Н. Жаҳид шеърини поэтикаси. – Тошкент, 2006; Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жаҳидчилик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007; Солижонов Й. Зулматдан нур кидирганлар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона нашриёти, 2007.

¹⁶ Назаров Б. ва б. Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи. – Тошкент, 2012. – Б. 287.

olib kirdi. Shuningdek, olimning g'oyalari tadqiqot obyektiga yangicha yondashuv nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbek adabiyotshunosligida mavjud katta bir bo'shliqni to'ldiradigan o'ziga xos ilmiy yo'nalish yuzaga kelishiga xizmat qildi. Bu esa, tabiiyki, fanni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqadi. B.Qosimovning jadid adabiyotiga oid tadqiqotlari bu davr ijodkorlari va ularning asarlari mohiyatini teran anglash uchun zarur asos vazifasini o'tadi. Olimning ilmiy qiziqish doirasi keng edi: o'zbek mumtoz adabiyoti¹⁷, jahon adabiyoti¹⁸, adabiy aloqalar¹⁹, adabiyot nazariyasi²⁰, tarjimashunoslik²¹ masalalari bilan ham shug'ullandi. XX asrning 60-yillarida B.Qosimov milliy taraqqiyparvarlik harakati jadidchilik, uning ijtimoiy-siyosiy negizi va uni harakatlantirgan adabiy siymolarni o'rganishga kirishdi. Natijada olim jadidshunoslikda yangi sahifa ochishga erishdi. Uning jadid adabiyoti masalalariga bag'ishlangan katta-katta tadqiqotlari ro'yobga chiqdi. B.Qosimov juda zahmatkash, yuksak saviyali, har bir qarashini mantiqan asoslab bera oladigan, analitik fikr yurita biladigan olim sifatida jadid adiblarning bir qator o'ziga xos jihatlarini kashf etdi.

Adabiyotshunos olim N.Jabbor B.Qosimov ilmiy maktabi milliy adabiyotshunoslikda jadid adabiyotshunosligi, jadid dramasi, jadid pedagogikasi, jadid matbuoti, yangicha ma'rifatparvarlik va jadidchilik, jadid tarixshunosligi kabi yangi ilmiy yo'nalishlarga asos bo'lganligini to'g'ri qayd etadi²². Olimning shu fikrini davom ettirib, prof. Begali Qosimovning tadqiqotlari yana quyidagi yo'nalishlarda ham ilmiy izlanishlar olib borishga zamin bo'ldi deyishimiz mumkin:

- jadid adabiyoti shaxsiyatlari va adabiy manbalar tadqiqi (N.Karimov va b.);
- jadid nasriga xos xususiyatlarni tekshirish (D.Quronov va b.);
- jadid she'riyati va janrlar poetikasi bo'yicha izlanishlar (N.Afoqova, Sh.Nazarova, N.Yo'ldoshev, S.Yoqubova, O.Barziyev va b.);
- jadid adiblari ijodida mumtoz adabiy an'analar tadqiqi (M.Tojiboyeva va b.);
- jadid adabiyotining xorijda o'rganilishi (Z.Mirzayeva va b.).

¹⁷ Қосимов Б. ва б.Навойихонлик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993; Навоийнинг нигоҳи тушган. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987; Юсуф Сарёмий. Танланган асарлар (матн, сўзбоши, луғат, изох) -Тошкент: Маънавият, 2002.

¹⁸ Аҳмад Заки Валидий. Мағжон Жумабой./ Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1992. 32-сон.

¹⁹ Туркий маданият боқийдир. // Хабар, 1992, 18 декабр, 38-сон.; Бир дарахтнинг меваларимиз.// Туркистон, 1992, 18-19-22 декабр.; Адабий ҳамкорлик йўлларида. (Турк дунёси адабиёти дарслиги). //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1995, 28 июл, 30-сон.

²⁰ Абдулла Авлоний (ОЎЮ учун қўлланма). – Ўзбек педагогикаси тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997.; Ўзбек адабиёти (X синф учун дарслик). – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.; Адабиёт (7-синф учун дарслик-мажмуа).; 2-нашри. – Тошкент: Ёзувчи, 2001.; Ўзбек адабиёти (10-синф учун дарслик). 3-нашри. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001.; Ўзбек адабиёти (X синф учун дарслик). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000.;Адабиёт (VII синф учун дарслик). – Тошкент: Ўқитувчи, 2000. Адабиёт (IX синф учун дарслик). – Тошкент: Маънавият, 2002.; Ўқитувчи китоби. (IX синф дарслик-мажмуаси, методикаси). – Тошкент: Маънавият, 2002.

²¹ Белинский В.Г., Лермонтов шеърлари -В.Г. Белинский. Адабий орзулар. Адабий –танқидий мақолалар, Тошкент: Ғ.Ғулом нашриёти, 1977.; Горький М., Мақолалар. (Бальзак ҳақида, М.М.Кацюбинский,

Короленко В.Г., Сергей Есенин) - М.Горький, Асарлар, 10-том, Тошкент: Ғ.Ғулом нашр. 1978 .; Турк дунёси адабиёти (Дарслик) 2 жилд, Анкара, 1996 Tomaris. –Turk dunyasi edebiyati metinlari antologisi. 1-cilt. Ankara, 2001, ss-268-270.; Zariadr ve Adatida. - Turk dunyasi edebiyati metinlari antologisi. 1-cilt. Ankara, 2001, ss-270-272.; Sirak. - Turk dunyasi edebiyati metinlari antologisi. 1-cilt. Ankara, 2001, ss-272-273.; Abu Ali Sina hikoyati. - Turk dunyasi edebiyati etinlari antologisi. 1-cilt. Ankara, 2001, ss-273-276.; Mirzo Ulugbek hikoyati. - Turk dunyasi edebiyati metinlari antologisi. 1-cilt. Ankara, 2001, ss-276-278.; Sulton Husayn ve mir Aliser. - Turk dunyasi edebiyati metinlari.

²² Жаббор Н. Абадиятга айланган лаҳза // Шарқ юлдузи. – 2012. 6-сон. – Б. 169-174.

Adabiyotshunos Q.Yoʻldoshevning taʼbiri bilan aytganda, “olim jadid adiblarining asarlari haqidagi izchil va mantiqli xulosalari bilan turkchilikning ildizlari va milliyat tuygʻusini shakllantirish bosqichlari haqidagi haqiqatlarni oydinlashtirishga salmoqli hissa qoʻshdi”²³. Chindan ham, B.Qosimov jadid sheʼriyatini, deylik, Fitrat sheʼriyati gʻoyaviy-badiiy xususiyatlarini tadqiq etar ekan, shoirning “oʻtli sheʼrlari”da Vatan qaygʻusi, yurt iztirobi, ijtimoiy tuzumga munosabati aks etganini koʻrsatish bilan cheklanib qolmaydi. Balki sheʼrning badiiy jozibas, estetik taʼsir quvvatiga, tahlilda zohiriy maʼnosiga emas, tagmatniga diqqat qaratish zarurligi bilan bogʻliq mulohazalarni bayon etadi. B.Qosimov hali adabiyotshunoslar u qadar eʼtibor qaratmagan muhim masalalarni oʻrtaga tashlaydi. Yaʼni jadid sheʼriyatida yangicha gʻoyalar oʻziga xos yangi shakl va uslublarda ifoda etila boshlangan edi. Vazn, poetik janr va badiiy obrazlarning yangilanishi, sheʼrlarning sarlavhalanishi, anʼnaviy hamd va naʼtlarning mazmuni oʻzgarganligi bilan belgilash haqidagi ilmiy-nazariy xulosalarni ilgari surish orqali jadid sheʼriyatini talqin etishda yangi sahifani ochib beradi²⁴.

B.Qosimovning oʻzbek jadidshunoslik maktabi taraqqiyotida ilmiy estetik tafakkurning yangilanishiga sabab boʻlgan omillardan yana biri ijtimoiy hayotdir. Milliy istiqlol mafkurasi olim tadqiqotlariga ayricha taʼsir koʻrsatdi. Ularda xolislik, haqqoniylik tamoyillarining yana ham ochiqlanishiga turtki boʻldi. Munaqqidning istiqlolgacha yaratilgan tadqiqot ishlari bilan istiqlol davrida yozilgan ishlari bir-biridan mazmun-mohiyatan farqli oʻrinlari bor. Shu maʼnoda B.Qosimovning jadid adabiyotiga oid ilmiy tadqiqotlarini keng jamoatchilikka taqdim etgan davriga koʻra quyidagicha belgilash mumkin:

1. Istiqlolgacha yaratilgan ilmiy tadqiqotlar (“Mirmuhsin Shermuhamedov”, “Inqilobiy sheʼriyat sahifalari”, “Abdulla Avloniy”, “Izlay-izlay topganim”, “Isyonkor qalb”, “Salom, kelajak”(alohida asarlari));

2. Istiqlol davrida yaratilgan tadqiqot ishlari (“Maʼrifat dargʻalari” (hammualliflikda), “Ismoilbek Gasprali”, “Maslakdoshlar”, “Milliy uygʻonish: jасorat, maʼrifat, fidoyilik”, “Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti” kitoblari).

Bundan tashqari, Begali Qosimovning jadid adabiyotiga oid tadqiqotlarini quyidagicha tasnif etish mumkin:

- alohida asarlari;
- ilmiy toʻplam, qomuslarda chop etilgan maqolalari;
- jurnallarda chop etilgan maqolalari;
- gazetalarda chop etilgan maqolalari;
- matnshunoslik ishlari.

Ikkinchi bob “**Jadidlar faoliyati Begali Qosimov nigohida: ijtimoiy-tarixiy va badiiy-estetik yondashuv oʻzgachaligi**” deb nomlangan. Bobning “**B.Qosimovning jadidshunoslikka doir tadqiqotlaridagi yetakchi xususiyatlar**” nomli birinchi faslida olimning jadidchilik harakati, uning yuzaga kelish omillari haqidagi qarashlari, talqin tamoyillari yoritilgan. B.Qosimov tadqiqotlarida jadidchilikning asosi xalq hamda yurt nimaligini anglashdan ularning manfaati

²³ Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 10

²⁴ Қосимов Б. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 297-300.

yo'lida kurashishgacha bo'lgan jarayondan iborat ekanini, bu harakat millatni tarbiyalab, uni uyg'otishga xizmat qilganini manbalar asosida ko'rsatib beradi. Milliy matbuotning paydo bo'lishi, maktab-maorifning faoliyati, teatr va yangi adabiyotning shakllanishi, yangicha tafakkurning maydonga kelishi – bularning hammasi millatning o'zligini anglashga ta'sir qilganiga urg'u beradi.

Begali Qosimov jadidchilikni ko'lamli ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat sifatida talqin qiladi. Turkistondagi jadidchilik g'oyalari sekin-asta jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borgan. Olimning qayd etishicha, Turkiyada "jadid" istilohi birgina adabiyot yo'nalishiga ishlatilgan. Shuningdek, o'sha davrlardagi turli manbalarda "Rusiya jadidchiligi", "Buxoro jadidchiligi", "Turkiston jadidchiligi" degan atamalar uchraydi, lekin bularning mazmun-mohiyati bitta – yangilanish ekanini olim o'z ishlarida isbotlab beradi. B.Qosimov Usmonli turklar imperiyasida bo'lib o'tgan siyosiy va madaniy o'zgarishlarni chuqur tadqiq etar ekan, aslida jadidchilik bu yerda ham faqatgina adabiyot bilan chegaralanib qolmay, jamiyat hayotining turli jabhalarida bo'y ko'rsatganini yozadi. Jumladan, olim 1839-yilda Mustafo Rashit Posho tomonidan yozilgan "Gulxonai xatti Humoyun" va bevosita u bilan aloqador holda boshlangan "Tanzimot" harakati aslida jadidchilik ekanini qayd etadi²⁵.

B.Qosimovning XX asr boshlari adabiy-tarixiy jarayoniga oid mulohazalari dastlab "Izlay-izlay topganim" asarida berilgan va u ilmiy jamoatchilik e'tiborini tortgan. Olimning adabiy jarayonni yorituvchi tadqiqotlari davr adabiy-tarixiy jarayonidagi asosiy tamoyillarni aniq ochib berish bilan birga shu tamoyillarga amal qilayotgan ijodkorlarning asarlari mazmun-mohiyati teran tadqiq etiladi va ularning ijodi muayyan darajada umumlashtiriladi. "Izlay-izlay topganim" kitobida olimning XX asr adabiy-tarixiy jarayonining adabiy-estetik ko'lami xususidagi o'ziga xos qarashlari aks etgan. Zero, bu davrning adabiy-estetik tafakkuri haqida tasavvurga ega bo'lmay turib, bu davrda yaratilgan asarlar mohiyatini anglash mumkin emas. "Izlay-izlay topganim" kitobi ana shu ehtiyojlni qondirishga xizmat qiladi. Bu asar XX asr boshlari adabiyoti manbalarini yangicha aspektlarda o'rganishda ilmiy-nazariy asos bo'ladi. Garchi asarning muqaddimasida olim bu davr bo'yicha yaratilgan tadqiqotlarni birma-bir sanab o'tgan bo'lsa-da, ularda aytilgan fikrlar ma'lum bir ijodkorning hayoti va ijodigagina xos ayrim jihatlarni yoritish bilan chegaralangan edi. Shunday ekan, davr adabiyoti xususidagi umummilliy qarashlar borasida mazkur asargacha maxsus fundamental ilmiy asar yaratilmaganligi ushbu asarning ilmiy qiymatini oshiradi. B.Qosimov sobiq sovet davridagi tadqiqotlarida 1905-1917-yillar poeziyasini inqilobiy adabiyot namunalari sifatida baholagan bo'lsa, istiqbol yillarida yaratilgan ilmiy ishlarida esa bu davrdagi o'zbek adabiyotini "zamonaviy realistik adabiyot" deya nomlaydi. Uning mohiyatini "milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash jarayoni ko'rinishida milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti jadidchilik harakatining taraqqiyoti va tugatilish davridir"²⁶ deb talqin etadi. Demak, har qanday tadqiqot tahlili jarayonini mafkuraviy ta'sirlardan xoli deb bo'lmaydi. Shu ma'noda "Izlay-izlay topganim" monografiyasida ham mafkuraviy ta'sirlarning

²⁵ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойлик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 5-10.

²⁶ Қаранг. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б.4.

bo'lishi, sotsialistik qarashlar ta'sirining sezilishi tabiiy. Shunday bo'lishiga qaramay, olimning bu asari XX asr boshlari adabiyotidagi murakkab, ziddiyatli vaziyatlar xolis tekshirilgani, bu davr adabiy-tarixiy jarayonining o'ziga xos qirralarini to'g'ri ochib bera olganligi bilan katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. B.Qosimov Turkistonda ro'y bergan xalq g'alayonlaridan tortib, bular haqida yozilgan turli materiallarigacha yoritlar ekan, vatan tarixida chuqur iz qoldirgan bu voqealar davr adabiyotida ham nishonsiz ketmaganini tizimli ravishda ko'rsatib beradi. Shuningdek, bu davr she'riyatida ko'tarinki ruh paydo bo'lganini, erk va ozodlik istagida bo'lgan shoirlarimiz sa'yi-harakatlarida "inqilobiy g'oyalarga yaqinlashish" borligini Avloniy va Hamzalar faoliyati hamda ijodi misolida ko'rsatadi. Olim bu xil inqilobiy ko'tarinkilik, g'oyaviy yuksalish yozma adabiyotdan avval o'sha davr xalq og'zaki ijodida bo'y ko'rsatganini folklorshunoslikda "yangi davr dostonlari" deb nomlangan "To'lg'anoy", "Namoz", "Mamatkarim polvon", "Jizzax qo'zg'oloni", "Mardikor" dostonlarida ijtimoiy hayot muammolari bosh mavzuga aylanganligi bilan izohlaydi.

B.Qosimovning XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti bilan bog'liq tadqiqotlaridagi yetakchi xususiyatlardan yana biri jadidshunoslikda ilmiy hamkorlik yo'nalishini boshlab berganligi bilan izohlash mumkin. Ya'ni Turkiya olimlari bilan hamkorlikda 1995-yilda "Turk dunyosi o'rtoqlik adabiyoti" dasturini amalga oshishida tashabbuskorlardan bo'ldi. Olimning Turkiyaga safarlari ham maqsadli edi. Ushbu dasturda 30 jildli, 600 sahifali kitob chop ettirish maqsad qilingan bo'lib, turk dunyosi adabiyoti tarixi, ensiklopediyasi, turk dunyosi adabiy matnlari antologiyasi, turk dunyosi adabiyoti terminlari lug'atini tuzishdan iborat edi. 2000-2007-yillarda nashr etilgan ushbu ishda O'zbekistondan ishtirok etgan asosiy olim ham Begali Qosimov bo'ldi²⁷.

Bobning "**Olimning tadqiqot uslubi va tahlil usullari**" deb nomlangan ikkinchi faslida olimning ilmiy laboratoriyasini o'rganish barobarida jadid adabiyotiga oid tadqiq va tahlillardagi o'ziga xos yondashuvlari, talqin usullari yoritilgan. Adabiyotshunoslik ilmida badiiy asarda yozuvchi uslubi bilan bir qatorda ijodkor olim uslubi ham alohida qayd etiladi.

Begali Qosimov jadidchilik davrining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy, adabiy hayotini chuqur o'rganib, o'zining teran ilmiy tadqiqotlari bilan jadid adabiyotshunosligida o'ziga xos ilmiy maktab yaratdi. Jadidchilik davri adabiyotini o'rganish, tahlil va targ'ib qilish olim ilmiy faoliyatining eng salmoqli qismini tashkil etdi. Olim jadid adabiyoti namunalariga badiiy matn sifatida baho berar ekan, ularda ijtimoiy hayotning muammolari, ma'rifat uchun kurashayotgan insonning ichki kechinmalari va tuyg'ularining reallashuv jarayonlarini badiiy talqinlariga diqqat qaratadi. U badiiy matnning talqinida tasvirdagi borliqni tushunish, ijtimoiy hayot voqelalari ifodasini anglash va ularga to'g'ri baho berishga urinadi. Jumladan, Fitratning "Munozara"sini tahlil qilar ekan, "yo'l ocherkini eslatuvchi bu asarda Buxoroning maishiy-siyosiy turmush manzaralari dunyo ko'rgan bir kishining nigohi orqali tasvir etiladi. Muallif yeri, suvi, havosi betimsol; xalqi g'oyat mehnatkash, hunarmand bir xalqning og'ir turmushidan so'z ochadi, uning

²⁷ Bu haqda qarang. To'rayeva U. O'zbek jadid adabiyotini o'rganishda Begali Qosimov tadqiqotlarining o'rni: Filologiya bo'yicha falsafa fanlari dok.diss. avtoreferati. – Buxoro, 2023. – B.23.

sabablarini tahlil etadi”²⁸ – deya hayotdagi muammolarning asardagi tasviriga e’tibor qaratadi. B.Qosimov talqinidagi Fitratning “Munozara” asari davr ijtimoiy muammolari, jamiyatdagi qoloqlik, jaholat singari masalalar yuzasidan yozuvchi dunyoqarashini ochib bergan “avlodlar mulqoti” sifatida anglashiladi.

Begali Qosimovning ilmiy faoliyati jadidshunoslik taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadigan ilmiy-nazariy yangiliklar kiritganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, Gasprinskiy, Mirmuhsin, Siddiqiy Ajziy, Avloniy, Behbudiy, Fitrat kabilar tarjimayi holidagi noaniqliklarga javob berishda ijodkorlar yashagan davr va hayot yo‘li, adabiy muhit, ijtimoiy vaziyatlarni obyektiv o‘rganish orqali ularning ma’naviy dunyosiga kirib borish kabi masalalarga jiddiy e’tibor qaratadi. Chunki XX asr boshlarida ijod qilgan adiblarning hayot va ijod yo‘li talqini murakkab hamda ziddiyatlarga boy edi. O’sha davrga tegishli tarixiy hujjatlar tadqiq va talqinida chalkashliklar, voqelikni mafkurabop yo‘sinda yoritish va izohlash kabi holatlarga yo‘l qo‘yilgan edi. B.Qosimov tadqiqotlari esa hamisha ana shunday “vaziyatga moslashish” unsuridan holi edi deb bo‘lmaydi. Ba’zan olimning istiqoldan ilgari yozilgan tadqiqotlarida ham davr kayfiyatiga monand mulohazalar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, munaqqid “Abdulla Avloniy” kitobida shoir she‘rlarining aksariyatini ijtimoiy-siyosiy mazmundagi she‘riyat sifatida baholaydi. “Ko‘klam keldi”, “Tovush” kabi she‘rlari sotsialistik mehnat mavzusiga bag‘ishlangani haqida yozib, “bu katta hodisaning ahamiyati zo‘r badiiy mahorat bilan ifoda qilingani, she‘rda sotsializmning tantanali odimi, oktyabrning hayotbaxsh ruhi sezilib turadi...Avloniy iste’dodi va kush-quvvati imkon bergan darajada revolyutsiya ishi uchun xizmat qildi,²⁹” – deya qayd etadi. Badiiy adabiyotni ijtimoiy-siyosiy omillarga bog‘lash sotsiologik metodning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, B.Qosimov ham Avloniyning aynan inqilob yillarida yozilgan “mehtakash Turkistonni hur bo‘lib yashash”ga, “bir bo‘lib yashashga” undovchi she‘rlarini “kishilarni farovon Turkiston uchun mehat qilishga” chaqiriq ruhidagi she‘r sifatida talqin qiladi.

Olim jadidchilikni baholashda turk, ozarbayjon, tatar va o‘zbek xalqlari orasidagi do‘stlik va xalqaro aloqalarni tahlil qilar ekan, qiyosiy-tarixiy metodga asoslanib, Ozarbayjon, Usmonli turk matbuotida Turkistondan chiqqan millat qahramonlari, ilm-fan, adabiyot, san‘at dohiylari, buyuk shaxsiyatlar haqida yozilgan badiiy asarlarning tez-tez bosilib turishini, masalan, turkchilikning mashhur boniylaridan Ziyo Ko‘k Alpnig xorazmlik Pahlavon Mahmudga bag‘ishlangan “Po‘lvon Vali” she‘riy qissasi “Xalqqa do‘g‘ru”ning 1913-yilda chop etilganligi kabi ma’lumotlarni keltiradi³⁰. Komparativistika nazariyasiga ko‘ra B.Qosimov adabiy jarayonga tarixiy genetik yondashuv, ya’ni kelib chiqishi jihatidan bir xil yoki yaqin xalqlar adabiyotini qiyoslar ekan, ulardagi g‘oyaviy mushtarakliklar, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yakdilliklar, mustaqillik, erk g‘oyasi bu xalqlar uchun umumbashariy orzu ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Qiyosiy o‘rganish jihatdan olim jadidchilikni tekshirishda mikrokomparativistika yo‘nalishida tahlil qiladi. Bir millatga yoki hududga (region) mansub adabiy hodisalarning qiyosiy tahlilida, masalan: turk va tatar xalqlarining

²⁸ Qosimov B. Maslakdoшлар. – Toшкент: Шарк, 1994. – Б. 76.

²⁹ Qosimov B. Абдулла Авлоний. – Toшкент: Ўқитувчи, 1979, 1979. – Б. 54.

³⁰ Ko‘rsatilgan manba. – B.105.

matbuoti tarixini qiyoslash orqali aslida o‘tmishdan kelib chiqishi bir-biriga yaqin bo‘lgan turkiy xalqlarning “millat” va “milliyat”, “jadidchilik” tushunchalari ostida birlashganligini ko‘rsatib beradi. Begali Qosimov qadriyatlar, tarix va tarixiy shaxslar, ular ko‘targan adolat bayrog‘i millatni bir va bor qiladigan asosiy omillar ekanligini ta’kidlaydi. Turkiy xalqlar tarixini yoritmoq uchun ular va aloqaga kirishgan o‘nlab, balki yuzlab millatlarning tili va tarixidan xabardor bo‘lish kerakligini, buning uchun Zaki Validiyning “Umumturk tarixiga kirish” hamda “Bugungi turk eli – Turkiston va uning yaqin tarixi” kabi asarlarni shoshilinch tarjima qilish zarurati borligini aytib o‘tadi. Olim “mutaxassis sifatida rus akademik sharqshunoslik maktabida shakllangan” Zaki Validiyning bu ikki asariga baho berar ekan, “Turkiston tarixini o‘rganishda bebaho manbalardan” ekanligini e’tirof etadi. B.Qosimov o‘zbek jadid adabiyotini turk jadidlar faoliyati bilan qiyosan tekshirish orqali turkiy xalqlarning kelib chiqishi, ulardagi ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘xshash voqeliklarni tarixiy dalillar asosida aniqlaydi. Asarlaridagi g‘oyaviy yaqinlikni kuzatadi. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy xususiyatlar – “jonlilik, faollik, intizomsevarlik, sabrlilik”larni Zaki Validiyning asarlarida keltirilgan ahloqiy sifatlar bilan qiyoslaydi.

B.Qosimov jadid adiblari asarlarini ichdan his qiladi va chuqur anglab yetadi, asarda aks etgan voqelik, qahramonlar ruhiyatiga xos jihatlarni sinchkovlik bilan ilg‘aydi. Bu jihatlar uning ilmiy tadqiqotlarida yorqin ifodasini topadi. Olim badiiy tasvir va ilmiy talqin orasidagi muvozanatni saqlay oladi. Begali Qosimov jadid adiblari asarlarini tahlilga tortar ekan, asar bag‘riga singdirilgan mohiyatni yozuvchining fikr-u o‘ylariga muvofiq ravishda talqin etadi. Buning uchun, albatta, asar matnidagi har bir ishoraga alohida e’tibor qaratadi, tasvir mohiyatini ko‘zdan qochirmaydi. Nazarimizda, olim hech qachon asar matnini bir-ikki o‘qish bilan chegaralanmagan, tadqiq jarayonida matnni tushunish, his qilish va tushuntirish uchun ham uni qayta-qayta o‘qiydi. Natijada har bir so‘z va jumlar yuki anglab yetiladi. Olimning qarashlari biryoqlamalikdan xoli ekanligiga sabab ham shunda.

B.Qosimov jadidchilik harakatining tub mohiyatini turli rakursda tadqiq qilish orqali “jadidlar va milliy g‘oya”, “jadid adabiyotida milliyat muammolari”, “madaniy-adabiy harakatchilik”, “millatni uyg‘otish istagi”, “jadidlar hayoti va faoliyati”, “jadidchilikning yetakchi g‘oyalari” kabi qator masalalarni o‘rganishi orqali o‘zbek jadidshunosligi rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. Shu tariqa, jadidchilik harakatining keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy harakat ekanligi hamda uning jamiyatdagi o‘rnini ilmiy asoslab berdi.

Munaqqidning jadid adabiyoti namunalarini tekshirish jarayonida biografik metodga murojaat qilgan o‘rinlar ham talaygina. Birgina, Siddiqiy Ajziy hayoti va adabiy faoliyatini tahlil etishda mazkur metodga o‘ndan ortiq marta murojaat etganini ko‘rish mumkin. Biografik metodda, odatda, ijodkorning hayot yo‘li, shaxsiyati ochib beriladi. Shu orqali yozuvchi ijod qilgan badiiy asarini idrok qilish, tahlillash va baholash usuliga erishiladi.

Adabiyotshunoslikda biografik metodning asoschisi deb e’tirof etilgan Sharl Ogyusten Sent-Byov tomonidan o‘z davri ilmiy doirasi uchun yangilik sifatida taqdim etilgan biografik tadqiq yo‘nalishi uch yirik omilga tayanadi³¹. Bulardan

³¹ Hasanov Sh. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – SamDU, Samarqand – 2021.

kelib chiqib, B.Qosimovning biografik tadqiq yo‘nalishi ham quyidagi omillardan iboratligini ko‘rsatish mumkin:

1) jadid adabiyotini o‘rganishda, avvalo, mumtoz adabiyot an‘analari va ma‘rifatchilik adabiyoti vakillari bo‘lgan Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Anbar Otin, Avaz O‘tar kabi ijodkorlar boshlab bergan milliy uyg‘onish davrining ijtimoiy-madaniy qiyofasidan kelib chiqadigan shaxs konsepsiyasi;

2) olim yashagan davr jamiyatidagi (sotsializm, kommunizm, shaxsga sig‘inish kabi) ijtimoiy-siyosiy, madaniy-tarixiy, falsafiy, psixologik, ilmiy-adabiy qarashlar;

3) B.Qosimov shaxsiyati, ijodiy, ilmiy, ijtimoiy faoliyatidagi o‘ziga xoslik.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, B.Qosimov uslubini belgilashda biografik talqin anchayin samarali kechgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ma‘lumki, biografik yondashuvda shoir va yozuvchilarning ruhiy olami, shaxsiyatiga xos jihatlar uning bitiklarida qanday aks etgani hisobga olinadi. Olimning “Mirmuhsin Shermuhammedov”, “Salom, kelajak”, “Abdulla Avloniy”, “Isyonkor qalb”, “Maslakdoshlar”, “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoyilik”, “Ismoilbek Gaspirali” singari tadqiqotlarida biografik metodning ilmiy-nazariy prinsiplariga amal qilingan va biografik yondashuv imkoniyatlari to‘laligicha namoyon etilgan. Olim “Maslakdoshlar” kitobida Behbudiy, Ajziy hamda Fitrat tarjimai holini yoritir ekan, har bir ijodkorning hayot yo‘lidagi turli holatlarni sinchkovlik bilan tadqiq qiladi. Hayotiy faktlarni asosli dalillar bilan keltiradi. Jadid adiblari ijodiga biografik yondashish orqali ularning shaxsiy hayot yo‘li, ruhiy kechinmalari, ichki olamidagi o‘ziga xoslik orqali ijodidagi o‘zgachalik sababi ko‘rsatib beriladi.

Dissertatsiyaning “**Adabiyotshunos olim Begali Qosimovning ilmiy-nazariy konsepsiyasi**” deb nomlangan uchinchi bobining ilk fasli “**Olimning jadid adabiyotiga oid adabiy-estetik qarashlaridagi o‘ziga xoslik**” deb nomlanadi. B.Qosimov jadid adiblari hayoti va ijodini tadqiq etish maqsadida XX asr boshlariga oid ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lmagan anchayin adabiy faktlar bilan tanishdi, hali adabiyotshunoslikda yetarlicha o‘rganilmagan bir qancha adabiy muammolarga duch keldi, shu bois ham bu davr adabiy hayotini yaxlit holda ichdan tekshirishga kirishdi va o‘zbek jadid adabiyotini o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlari va tashkilotchilik faoliyati olim ilmiy-ijodiy faoliyatining muhim bir qismiga aylandi. Olimning bu boradagi adabiy-estetik qarashlari ilmiy jamoatchilikka ma‘lum: “Maslakdoshlar”, “Uyg‘ongan millat ma‘rifati”, “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoyilik”, “Abdulla Avloniy”, “Mirmuhsin Shermuhammedov”, “Inqilobiy she‘riyat sahifalari”, “Salom, kelajak”, “Ma‘rifat darg‘alari” (hammuallif), “Ismoilbek Gasprali” kitoblarida, matbuotlardagi, ilmiy to‘plamlardagi yuzga yaqin maqolalarida jadid adabiyotining turli muammolariga doir kuzatishlari va ilmiy xulosalari aks etadi. B.Qosimovning ilmiy-estetik qarashlaridagi yangiliklar, fikriy taraqqiyot olimning ilmiy muammoga yondashuvida, undagi zaruriy jihatlarni aniqlay bilishda hamda muayyan xulosaga kelishida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

“O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi” o‘quv darsligida yozilganidek, “tanqidiy biografik ocherkda dalil va ilmiy xulosalardan ko‘ra, ularga tayyorgarlik jarayonlari kuzatiladi, hali uzviy qo‘nim topmagan fikrlarni ilgari surish xohishi saqlanadi. Munaqqid hujjatlilikka asoslanib, yozuvchi hayoti, ijodi haqidagi kuzatuvlarni,

mulohazalarni mutaxassislar, kitobxonlar nazaridan o‘tkazib olish uchun o‘rtaga tashlaydi. Ularda izchillikdan ko‘ra fragmentarlik xususiyati kuchliroq bo‘ladi, ularni yanada rivojlantirish, takomillashtirish uchun imkon qoldiriladi”³². “Mirmuhsin Shermuhamedov”, “Ismoilbek Gasprali” asarlari ham tanqidiy-biografik ocherk janriga mansub. Olim oldin bu ijodkorlar haqida vaqtli matbuotlarda portret-maqolalarini e‘lon qilgan. Tinmay izlanishlar, o‘rganishlar, ilmiy safarlar natijasida ular haqida qimmatli manbalarni yig‘ib, shular asosida katta hajmdagi kitoblar yozadi. Har bir tanqidiy-biografik ocherkda shoirlarning tarjimai holini aniq manbalarga tayangan holda yoritadi, ya‘ni xotiralar, hujjatlar, arxiv materiallarini jiddiy o‘rgandi, ularni ilmiy-adabiy muomalaga olib kirish asnosida muayyan ijodkorlarning hayoti va ijodiga oid ko‘p mavhumliklarga aniqliklar kiritadi. Ijodkorlarning asarlarini jiddiy tahlil va tadqiq etish asnosida ularning ijodiga obyektiv baho beradi, asarlarni sof adabiy mezonlar doirasida tekshirib, adabiyotda tutgan o‘rnini belgilab beradi. Munaqqidning jadid adiblari haqidagi aniq manbalarga tayanib yozilgan zalvorli ilmiy fikrlari, qiyoslash asosidagi xulosalari jadid adabiyotiga oid keyingi tadqiqotlarga asos bo‘ladi, deyish mumkin.

Nazariy manbalarda ta‘kidlanganidek, tanqidiy-biografik ocherklarda ijod muammolariga ko‘proq etibor qaratiladi. Xuddi shuningdek, B.Qosimov ham Ismoilbek Gasprinskiy haqidagi biografik ocherkida Gaspirinskiy asarlarining yozilish tarixi, mazmun-mohiyatini ochib beradi. Masalan, “Rusiya musulmonligi” asari davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy masalalari, xususan, “rusiyaning Sharqdagi madaniylashtiruvchilik roli” va uning xizmatlaridan ko‘ngli to‘lmaslik, va uni “bir tomondan, millatni mahv etib kelayotgan jaholat, ikkinchi yoqdan chor hukumatining izchil, rejali ruslashtirish siyosati” ekanligi ochib tashlash, “Rusiyadagi musulmonlarning taqdiri qanday bo‘larkan?” savoliga javob berish ehtiyoji nuqtai nazaridan yozilgan asar ekanini ko‘rsatib beradi.

B.Qosimov ijodida kichik maqolalardan tortib yirik hajmdagi adabiy tanqidiy asarlar mavjud. Xususan, “Zamondoshlar, maslakdoshlar”³³ maqolasi adabiy-tanqidiy obzor tarzida yozilgan bo‘lib, unda jadid adiblar ijodini bir-biriga yaqinlashtirgan mushtarak jihatlar yoritiladi. Ilmiy manbalarda adabiy-tanqidiy obzor maqolaga “alohida bir adib yoki bir necha adibning muayyan bosqichdagi ijodi; ma‘lum bir adabiy tamoyillar shakllanishi, takomillashuvi; uning sabab-oqibatlarini, bu jarayonda muhim rol o‘ynagan adiblarning asarlaridagi o‘ziga xosliklarni ko‘rsatish; adabiy jarayonning o‘ziga xosliklarini ochish; maqsadning amalga oshirilishi natijasidagi xulosalarni umumlashtirish”³⁴ vazifasi yuklatilganligi qayd etiladi. Munaqqidning “Zamondoshlar, maslakdoshlar” maqolasi 70-yillarning so‘nggida yozilgan bo‘lib, unda Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Badriddin A‘lamov (Abdulla Badriy), Abdurauf Samadov (Shahidiy), Ibrohim Davron kabi bir qancha zamondosh ijodkorlar haqidagi fikr-mulohazalari aks etgan. Xususan, Hamzaning hayot va ijod sanalarini real voqelik hodisalari bog‘lagan holda shoir tug‘ilgan 1889-yilni “ko‘hna Turkiston baxt va erk uchun qo‘zg‘olgan

³² Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи. – Б. 369. www.ziyouz.com. kutubxonasi

³³ Қосимов Б. Замондошлар, маслакдошлар // Шарқ юлдузи. – 1979. № 5.

³⁴ Назаров Б. ва б. Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи. – Тошкент: Чўлпон, 2012. - Б. 357.

bir payt edi”³⁵,- deya ta’riflaydi. Hamza boshqa ko‘plab ma’rifatparvarlar qatori xalqning taqdiri uchun jonbozlik ko‘rsatgan. Maqolada unga zamondosh bo‘lgan ijodkorlarning teatr san’atiga qo‘shgan hissasi va o‘zbek dramaturgiyasining taraqqiyoti to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni keltiradi. O‘sha davr uchun teatr katta madaniy yuksalish o‘chog‘i bo‘lgani, 1915-yilning yanvarida Qo‘qonga kelgan “Turkiston” teatr truppasiga qo‘qonlik aka-uka Mirzohid va Mirhomid Miroqilovlar, Yunusxon Hojiog‘aliqovlar yordam bergani, “Avloniy boshliq mehmonlar”-u “Hamza boshliq mezbonlar” uchun ham bu safar manfaatli bo‘lganini ta’kidlaydi. Hamza va Avloniy birlashtirgan “Turkiston” teatr truppasi 1913-yilning oxirlarida tashkil topib, 1914-yil 27-fevralda Kolizeyda o‘z faoliyatini boshlagan edi. Maqolada olim o‘zbek teatr san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shgan nomlarni ham alohida qayd etadiki, bu ma’lumotlarni har qanday manbadan ham topib bo‘lmaydi. Bu esa Begali Qosimovning tanlagan obyektiga real yondashuvini ko‘rsatadi. B.Qosimovning bu maqolasi ikki jihatdan qadrlil: birinchidan, Hamza va Avloniy hayoti va ijodi haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lmagan o‘quvchilar uchun dastlabki axborot bo‘la oladi. Ikkinchidan, teatr san’ati va o‘zbek dramaturgiyasining taraqqiyot yo‘li haqida yangi ma’lumotlarni taqdim qiladi. Maqolada Hamza va Avloniy bog‘lab turgan mushtarak jihatlariga to‘xtalar ekan, ikkisining ham dunyoqarashi shakllanishiga 1905-yil voqealari katta ta’sir ko‘rsatganini aniq faktlar asosida izohlaydi. Mazkur “Maslakdoshlar, zamondoshlar” nomli maqola ikki qismdan tarkib topadi, uning boshlang‘ich qismida ijodkorning hayot yo‘liga oid ma’lumotlarni tarixiy xujjatlarga asoslanib keltiradi. Ikkinchi qismda Avloniy va Hamzaning ijodiga baho beradi. Avloniyning 1921-yilda yozilgan avtobiografiyasidagi (qizi Hakima Avlonova qo‘lida saqlanadi) ma’lumotlarni keltirar ekan, Avloniyning shaxsiy arxivida turli davrda turli munosabatlar bilan yozilgan 7 nusxada tarjimai holi mavjudligini ta’kidlaydi.

B.Qosimovning jadid adabiyotiga oid adabiy-estetik qarashlaridagi yetakchi xususiyatlardan yana biri olim jadid ijodkorlari, ularning katta-kichik asarlari, maqolalari xususidagi qarashlarini ifoda etishda davr milliy matbuotidan birlamchi manba sifatida foydalanadi. U “Turkiston viloyatining gazetisi” faoliyatini o‘rganish jarayonida unda chop etilgan maqolalarning davr adabiy va ijtimoiy hayotida tutgan o‘rniga ko‘ra belgilab boradi va millat, adabiyot taqdirida ayricha o‘rin tutgan maqolalarni alohida tahlilga tortadi. Mirmuhsinning “Shoir janoblarga iltimos” maqolasi shular jumlasidandir. Ma’lumki, har bir davrda bo‘lgani kabi XX asr boshlari adabiyotida ham madhiyabozlik, haybarakallachilik yaxshigina tus olgan edi. B.Qosimov Mirmuhsinning ushbu maqolasi aynan shu masalaga qarshi munosabat tarzida yozilganligini ta’kidlaydi va “Shoirilar zamonaning lisoni(tili)dur... Zamonaga munosib milliy she’rlar maydonga chiqsun!” deyish bilan Mirmuhsin do‘stlarini badiiy ijoddagi maddohlik va safsatobozlikka qarshi kurashga da’vat etganligini qayd etadi. Munaqqid jadid qalamkashning Abdulla To‘qay ijodi bilan bog‘liq fikrlarini, uni xalqqa xizmat etishning namunasi sifatida ko‘rsatganini qo‘llab-quvvatlaydi³⁶.

³⁵ Қосимов Б. Замондошлар, маслакдошлар // Шарқ юлдузи. – 1979. № 5.

³⁶ Қосимов Б. Оқ тонгларни орзулаган шоир / А.Авлоний. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2020. –Б. 61-62.

B.Qosimovning har bir maqolasini hech bir mubolag‘asiz katta bir asar deyish mumkin. Uning “Turkiy Guliston”, “Siddiqiy Ajziy”, “Saidahmad Siddiqiy”, “Tavallo”, “Abdurauf Fitrat – xalq farzandi”, “Shoir xotirasini izlab”, “Karvonboshi”³⁷ kabi maqolalari biz davo qilgan mezonga asos bo‘la oladi. Ya’ni maqolalarda adiblarning tarjimai holi bo‘yicha ma’lumotlarga aniqliklar kiritish, ularni asarlarini ijodkorlarning kechinmalari bilan uyg‘un holda tahlil va tadqiq qilish, adabiy jarayonda tutgan mavqeini belgilash kabi masalalar o‘z yechimini topadi. Ularning deyarli hech biri shunchaki yozilmagan, har biri betakror nazariy-estetik konsepsiyaga ega bo‘lganidan hajman kichik maqolalari ham muayyan ijodkor yoki adabiy jarayon haqida to‘la tasavvur bera oladi. Olimning maqolalarida ilgari surilgan fikrlar aniq dalillar negiziga qurilgan bo‘lib, ulardagi chuqur mantiq va umumnazariy xulosalar muhim ahamiyat kasb etadi.

3-bobning **“B.Qosimov tadqiqotlarida vaqtli matbuot va adabiy jarayon munosabatlarini tekshirish tamoyillari”** nomli 2-faslida esa jadid publisistikasi o‘zbek jadidshunosligi taraqqiyotida alohida bosqich bo‘lganligi, Begali Qosimovning jadid publisistikasi tadqiqiga bag‘ishlangan asarlari o‘rganilgan. B.Qosimov asr boshlaridagi jadid harakatchiligi matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga yo‘naltira olganligini ta’kidlaydi. Shuning uchun ham davr matbuotini o‘rganar ekan, Turkistonda jadidchilik paydo bo‘lishida tatar matbuotining ta’siri katta bo‘lganligini qayd etadi. Jumladan, 1904-yilda “Al-asr al-jadid” jurnali, 1905-yili “Qozon muxbiri”, “Nur”, 1906-yili “Ulfat”, “Ishchilar dunyosi”, “Ulug‘ Turkiston”, “Yulduz”, “Ozod” gazetalari, ayniqsa, “Vaqt” gazetasi Sharq dunyosida shuhrat topganligini alohida ta’kidlab o‘tadi³⁸.

B.Qosimov Turkiston matbuotining 1905-yil manifestidan ilhom olib, qisqa muddatda katta bosqichni bosib o‘tgani hamda turkiy dunyoning e’tiborli davralari nazariga tushganligini aytib o‘tadi. Buning ilk e’tirofchisi Cho‘lpon ekanligini qayd etadi³⁹. Olim Abdulla Avloniyning “Burungi o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi” maqolasiga tayanib “1905-1917-yillar oralig‘ida o‘lkada o‘zbek tilida 22 ta gazeta, 8 ta jurnal, nashr etilgani”⁴⁰ haqidagi faktik ma’lumotlarni berib o‘tadi. Bu esa jadid matbuotining davr nuqtayi nazaridan rivojlanib borayotgani va o‘lkada gazeta va jurnal o‘quvchi ziyoli qatlamning shakllanib borayotganining belgisi edi. Jadidchilik g‘oyalari matbuot yordamida atrofga yoyila boshlanishi jamiyatdagi barcha sohalarda ulkan o‘zgarishlar bo‘lishiga, yangiliklar yaratilishiga yo‘l ochgan edi.

B.Qosimov tadqiqototlarida ilk o‘zbekcha gazeta sifatida “O‘rta Osiyoning umr guzarligi” bo‘lganini belgilagan holda Avloniyning bu gazetani “bir oz hur fikrli” deya e’tirof etganligini qayd etadi. Olim 1906-yilda Ismoil Obidiy muharrirligida chop etilgan “Taraqqiy”ni ilk o‘zbek milliy gazetasi sifatida tarixga

³⁷ Qosimov B. “Turkiy Guliston” // Sharq yulduzi, 1968, 11-son; “Siddiqiy-Ajziy” // Muштum, 1970, 21-son; “Tavallo” // Guliston, 1989, 6-son; “Abdurauf Fitrat-xalq farzandi” // Saodat, 1989, 7-son; “Shoir xotirasini izlab” // Sharq yulduzi, 1989, 10-son; “Karvonboshi” // Eshlik, 1990, 1-son.

³⁸ Qosimov B. Milliy uifonish: jasorat, maъrifat, fidoiyluk. – Toshkent: Maъnaviyat, 2002. – B. 51.

³⁹ Чўлпон. Туркстонда матбуот//Жамият ва бошқарув, 1998, 2-сон. Нашрга тайёрловчи Т.Тоғаев.

⁴⁰ Qosimov B. Milliy uifonish: jasorat, maъrifat, fidoiyluk. – Toshkent: Maъnaviyat, 2002. – B. 58., Abdulla Avloniy. Burungi ўzbek vaқtli matbuotining tarixi. Нашрга тайёрловчи Ш.Ризаев. Milliy uifonish. – Toshkent: Universitet., 1993. – B. 115,123.

kirganligini ta'kidlar ekan, u nashr etilgan 27-iyun sanasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qarori bilan "Matbuot kuni" deb e'lon qilinganini aytib o'tadi. Demak, bu gazeting jadidchilik faoliyatidagi o'rni ham ayricha bo'lgan, aynan, milliy tafakkurimizni boyituvchi nashr manbasi sifatida tarixda nom qoldirgan.

B.Qosimov ba'zi matbuotshunoslarning "jadid adabiyotining dastlabki davrida chor hukumati so'z, matbuot erkinligi cheklangani natijasida o'rtada uzilish yillar bo'lgan"⁴¹ligi haqidagi qarashlarini tasdiqlagan holda matbuotning keyingi taqdiri va uning qayta shakllanish yillarini 1913-yildan deb belgilaydi. Turkistondagi gazeta va jurnallar faoliyatini yangitdan tug'ilishini Behbudiyning sa'y-harakatlari bilan bog'laydi. Behbudiy muharrirligidagi "Samarqand" gazetasi o'zidan keyin ko'p "jarida"larga doyalik qilganligini qayd etadi. Olim mazkur gazeta jadid "maslakdosh"larni, xususan, Siddiqiy Ajziy, Hoji Muin, Nusratulla Qudratulla, Saidrizo Alizodalarni bir maydonga jam' qilganligini ta'kidlash bilan uning o'z davrida yuqori mavqe'ga ega bo'lganini ta'kidlaydi.

B.Qosimov jadid matbuoti haqidagi fikrlarini quyidagicha umumlashtiradi:

– jadid matbuoti XX asr boshidagi Turkistonning ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi yangilanishlarning o'ziga xos bir vositasi sifatida namoyon bo'ldi va millatning uyg'onishida muhim rol o'ynadi;

– jadid matbuotining yuzaga kelishida yoshlarning o'rni alohida bo'lib, o'lkada avj olgan ayrim salbiy odatlarga barham berish, xalqni milliy birlik, ma'rifat hamda mustaqillik bayrog'i ostida jipslashtirish bo'yicha taraqqiyparvar shaxslarning intilishlarini yuzaga keltirdi;

– turkistonlik taraqqiychilar matbuot vositasida qardosh turkiy xalqlar madaniyatiga yaqinlashdi va o'z taqdirini ular bilan birga ko'rdi, o'tmishning achchiq tajribalaridan saboq chiqarishga, kelajak uchun bir jon, bir tan bo'lib, kurashish zarurligiga ishonch hosil qildi. "Vaqt", "Tarjimon", "Ong", "Sho'ro" kabi Kavkaz va Volgabo'yida chiqib turgan, chor hukumatining mustamlakachilik tuzumiga qarshi kurashda muayyan tajribaga ega bo'lgan gazeta-jurnallar Turkiston jadid matbuotining oyoqqa turib olishida muhim o'rin tutdi;

– o'zbek jadid matbuoti yangi o'zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiy topishida oltin beshik vazifasini o'tadi. Behbudiydan Cho'lpongacha bo'lgan jadid adabiyotining barcha vakillari fikrlarini ham, qalamlarini ham ilk gazeta-jurnallarda charxladilar;

– jadid matbuotining eng muhim xizmati millatni uyg'otish va mustaqillik uchun tayyorlash edi. Matbuot buni sharaf bilan bajardi⁴².

B.Qosimov davr ijtimoiy tafakkuriga xos jihatlarni jadid publisistikasidan topadi va unda aks etgan mazmun-mohiyatni, milliy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy g'oyaviy belgilarni ko'rsatib beradi va xulosalar chiqaradi. Jadid matbuotida e'lon qilingan maqolalar millatni bosqin va tanazullarga qarshi umumturk istiqloqlilik harakatlariga qo'shib, najotni faqat birlikda ko'rishga chorladi. Olim bu matbuot organlari jadidlarning o'zlikni anglashga doir g'oyalarini ifoda etishda mayoq

⁴¹ Абдуазизова Н. "Ўзбекистон журналистикаси тарихи" / Кўчирма Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойлик китобидан олинди. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 62.

⁴² Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойлик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 64.

vazifasini o‘taganligi borasida aniq xulosaga keladi. B.Qosimovning bu kabi teran ilmiy xulosalari nafaqat o‘sha davr, balki bugun uchun ham ahamiyatlidir.

XULOSA

1. Jadidchilik harakati bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan o‘zbek jadidshunoslik ilmi g‘oyat murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. U chor hukumati davrida ham hukmron tuzumning, ham mutaassib qadimchilarning zug‘umi ostida faoliyat ko‘rsatdi. Sovet davridagi jadidshunoslikka oid ishlarda esa ko‘pincha mafkuraviy biryoqlamalik, noxolis baholash, jadidlar ijodiga vulgar sotsiologik yondashish yetakchilik qildi.

2. Adabiyotda har bir davrning ilmiy-estetik tafakkuri yangilanib, boyib boradi. Boisi ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar odamlarning turmush tarzi va fikrlash yo‘sinida, ular esa badiiy adabiyotda o‘z aksini topadi. Haqiqatan, ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan keskin o‘zgarishlar shu ijtimoiylikning bir bo‘lagi – ijodkor shaxsini chetlab o‘tmadi. Shunga mos ravishda, adabiyotda olam va odam munosabatlari haqidagi badiiy konsepsiya (inson konsepsiyasi) yangilanishi natijasida individual-ijodiy badiiy tafakkur bosqichiga qadam qo‘yildi. Jadid adabiyoti asarlariga va ularning shaxsiyatiga nisbatan ilmiy pozitiv munosabatda bo‘lindi.

3. O‘zbek adabiyotshunosligida “ma’rifatchilik adabiyoti” va “jadid adabiyoti” nomlari ostida tadqiq qilinadigan ikki bosqichni prof. B.Qosimov “Milliy uyg‘onish davri adabiyoti” tarzida birlashtirish g‘oyasini ilgari surdi. Olim jadidchilik harakati faqat tashqi ta’sirlar tufayli emas, balki ma’rifatchilik shaklida yurt ichkarisida paydo bo‘lgan adabiy-ma’rifiy harakatdan oziqlanganini isbotladi va sobiq sovet davridayoq jadidlar harakatini, ular tomonidan yaratilgan adabiyotning asl mohiyatini anglab yetdi.

4. B.Qosimov ilmiy ishlarining salmoqli qismi XX asr boshlari o‘zbek adabiyotini o‘rganish va targ‘ib etishga qaratilgan. Olimning jadidshunoslikka doir tadqiqotlaridagi yetakchi xususiyatlar sifatida: davr adabiy-tarixiy jarayonini xolis kuzatish asnosida jadid adabiyotini chuqur tadqiq qilish bilan birgalikda, jadid adiblari ijodini ilmiy-nazariy masalalar yuzasidan tekshirganligida ko‘rinadi. Shuningdek, bu borada amalga oshirilgan ishlar faqatgina jadid adabiyoti tarixini o‘rganish nuqtai nazaridagina ahamiyat kasb etmaydi, aksincha, adabiyot nazariyasi, milliy ma’naviyat va ma’rifat, adabiy ta’sir va hamkorlik jihatidan ham qimmatlidir.

5. B.Qosimov tadqiqotlaridagi asosiy metodologiya sifatida adabiy jarayon va badiiy hodisalarni qiyosiy-tarixiy, sotsiologik, germeneytik, biografik metodlar asosida “Mirmuhsin Shermuhamedov”, “Abdulla Avloniy”, “Izlay-izlay topganim”, “Isyonkor qalb”, “Salom, kelajak”, “Ma’rifat darg‘alari”, “Ismoilbek Gasprali”, “Maslakdoshlar”, “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik” kabi asarlarida, “Turkiy Guliston”, “Siddiqiy Ajziy”, “Saidahmad Siddiqiy”, “Tavallo”, “Abdurauf Fitrat – xalq farzandi”, “Shoir xotirasini izlab”, “Karvonboshi” singari maqolalarida qo‘llaganligida, adiblarning tarjimai holiga yangi ma’lumotlar kiritilib, asarlari tamomila o‘ziga xos badiiy-estetik konsepsiya asosida tadqiq qilganligi bilan

muhimlik kasb etadi.

6. Olimning jadid adabiyotiga oid adabiy-estetik qarashlaridagi o'ziga xoslik jadid adiblari hayoti va ijodiga oid ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan adabiy faktlarni sinchkovlik bilan o'rganganligida, ilmiy muammoga yondashuvida, undagi muhim jihatlarni aniqlay bilishda hamda muayyan to'xtamga kelishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Olim yuzdan ortiq jadid adiblari haqida ilmiy jamoatchilikni xabardor qildi, ko'p qismini maxsus tadqiq qildi, ulardagi ma'lumotlarni asarlar matni va ijtimoiy hayot xususiyatlariga qiyoslagan holda ilmiy xulosalar chiqaradi. Bunday mantiqiy-estetik talqin tamoyili adabiyotshunoslik ilmida ma'lum ma'nodagi yangilik edi.

7. Professor B.Qosimovning tadqiqotlari jadid she'riyati, jadid matbuoti, jadid pedagogikasi, jadid adabiyotshunosligi, jadid dramaturgiyasi, ma'rifatchilik va jadidchilik, jadid tarixshunosligi, jadid nasri, jadid adiblari ijodida an'ana va mahorat, xoriydagi jadidshunoslik kabi yangi yo'nalishlarga zamin bo'ldi. Natijada, jadidshunoslikning turli yo'nalishlari ustida tadqiqot olib borgan olim jadidshunoslikda yangi bosqichga ko'tarildi.

8. Munaqqid turk, tatar, ozarbayjon va o'zbek va qardosh xalqlar adabiyotlaridagi o'zaro aloqalar va adabiy ta'sir masalalarini komparativistik yondashuv asosida atroflicha tadqiq qildi. Ayniqsa, o'zbek-turk adabiy aloqalariga ayricha e'tibor qaratdi. "O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalar tarixi" kitobida muallif komparativistik yondashuv asosida adabiyotlar o'rtasidagi mushtaraklik va o'ziga xos jihatlarni aniqladi, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga erishdi.

9. Olim millat tafakkurining tadrijiy bosqichlarini aniqlash maqsadida davriy matbuot hodisalarini tekshirdi. Bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy hayot, yangi fikr, yangi g'oyalar aynan matbuotda aks etganligi, ijodkorlarning charxlanishida ham matbuot asosiy vosita bo'lib xizmat qilganini tarixiylik, yaxlitlilik, tizimlilik kabi tamoyillar vositasida davr adabiyotini tahlil etishga erishdi. Xalqning ijtimoiy-estetik tafakkuri o'sishiga ta'sir ko'rsatgan va bosh omil sanalgan vaqtli matbuot materiallaridan o'rinli foydalanib, jadid adabiyoti to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlarga yangilik kiritdi, xulosalar chiqarishda aniqlikka erishdi. Qolaversa, zahmatkash olim davr adabiyotini o'rganishda birlamchi manba sanalgan bir qancha gazet-jurnallar, qo'lyozma-toshbosma asarlarni nashrga tayyorladi.

10. B.Qosimov jadid adabiyoti va bu davr adabiy-tarixiy jarayoniga oid muhim ilmiy muammolar borasida tadqiqotlar yozgani, bir necha jadid ijodkorlarining tarjimayi hollarini tiklagani, hayoti va ijodiy merosini o'z ilmiy konsepsiyasi nuqtayi nazaridan o'rgangani, shuningdek, ularning asarlarini tabdil qilib, nashrga tayyorlagani bilan ushbu yo'nalishda o'ziga xos ilmiy-tadqiqot maktabini yaratdi. Bu esa, tabiiyki, olimning hayot yo'li va ilmiy faoliyatining mevasi, natijasi edi.

**SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 ON AWARDING
ACADEMIC DEGREES AT FERGANA STATE UNIVERSITY**

ANDIJAN STATE UNIVERSITY

BEKTASHEVA GULBAHOR RAYIMJONOVNA

**DEVELOPMENT STUDIES OF UZBEK JADIDOLOGY
(ON THE EXAMPLE OF THE SCIENTIFIC RESEARCH
OF BEGALI KASIMOV)**

10.00.02 – Uzbek literature

ABSTRACT
of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL SCIENCES

Fergana – 2025

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation in philological sciences is registered in the Higher Attestation Commission with the number B2021.1.PhD/Fil1567

The dissertation was completed at Andijan State University.

The abstract of the dissertation is available in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of Fergana State University (www.fdu.uz) and on the informational-educational portal "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor:

Tadjibayeva Mukaddas Abdurahimovna
Doktor of Philological Sciences, Professor

Official opponents:

Jurayev Habibullo Abdusalomovich
Doktor of Philological Sciences, Professor

Rasulova Umida Yuldosh kizi
Doktor of Philological Sciences, Professor

Leading organization:

Namangan State University

The defense of the dissertation will be held on " 11 " 01 2025, at 9:00 at a meeting of Academic Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Fergana State University. (Address: 105, Marginoniy street, Fergana, 150100. Tel.: (99873) 244-57-82; fax: (99873) 244-44-93; Web-site: www.fdu.uz; e-mail: fardu_info@umail.uz).

The dissertation is available in the Information Resource center of Fergana State University (registered under № 448). (Address: 19, Murabbiylar street, Fergana, 150100. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; Web-site: www.fdu.uz; e-mail: fardu_info@umail.uz).

The abstract of the dissertation is distributed on " 27 " 12 2024.

(Digital register protocol № 03 dated " 27 " 12 2024.)



S.M.Muminov
Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Philological Sciences, Professor

M.T.Zakirov
Secretary of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Candidate of
Philological Sciences, Professor

A.Z.Rahimov
Chairman of the scientific seminar under
the Scientific Council awarding scientific
degrees, Doctor of Philological Sciences,
Associate Professor

INTRODUCTION (doctor of Philosophy (PhD) dissertation annotation)

Relevance and necessity of the topic of the dissertation. Research on the scientific heritage and literary and aesthetic views of a particular scientist, methods of research of a scientist, principles of approach to the text and criteria for assessing the literary source are studied in the world literary science. The globalization process assumes the need to conduct research based on conceptual conclusions on the personality and scientific heritage of a scientist on the basis of Advanced Scientific and methodological methods that have arisen in World Literary Studies.

In the science of world literature, conducting research on the scientific heritage and literary-aesthetic views of a certain scientist, the critic's research methods, the principles of approaching the text, and the criteria for evaluating a literary source are being studied. The process of globalization requires the need to conduct research based on conceptual conclusions about the scientist's personality and scientific heritage on the basis of advanced scientific and methodological methods that have emerged in world literature.

In Uzbek literary studies, the research of Begali Kasimov on the study of the activities and literary heritage of the jadids is of particular scientific importance. During his whole forty-year scientific and creative career, the scientist studied the important problems associated with jadid literature. His scientific research is recognized not only among literary scholars of Uzbekistan, but also among literary scholars of Turkey, Azerbaijan, Germany, Russia, USA. A scientific necessity is the monographic study of the scientific activity of scientist Begali Kasimov, who, with his research on jadidology, took this field to a new level and contributed to its recognition in World Literary Studies. After all, as our head of state noted: “to engage in science, to make new discoveries and inventions is to dig a well with a needle. Therefore, the work of our selfless scientists in this painstaking field is worthy of encouragement and encouragement”¹.

Creating a scientific biography of B.Kasimov, determining the scientific-methodological foundations on which he relied in his research, the essence of his scientific-literary views, peculiarities in his style, a monographic study of the unique approach methods in the study of modern journalism, in a monographic way, will provide a true view of the stages of the development of national jadidology. serves to show the relevance of this dissertation.

Decree No. PF-6084 of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 20, 2020, No. PF-6097 dated October 29, 2020 "On measures to further develop the Uzbek language in our country and improve language policy" "On approval of the concept of development of science until 2030", 2023 September 11, Decree and decisions No. PF-158 on the strategy "Uzbekistan - 2030", "Development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026", as well as specified in

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев мамлакатимизнинг етакчи илм-фан намоёндалари, Фанлар академияси аъзолари, ҳукумат аъзолари, вазирлик ва идоралар ... билан 2016-йил 30- декабрь куни бўлиб ўтган учрашувда сўзлаган нутқи / Халқ сўзи, 2016 йил, 31 декабрь.

other normative legal documents of our government This research work serves to a certain extent in bringing out suggestions and instructions.

Also, it serves to a certain extent the fulfillment of many tasks set by our President at the International Conference on the topic "Recent: national identity, independence and ideas of statehood" held on December 11, 2023.

Compliance of research with priority directions of development of science and technology of the Republic. The dissertation is written in the nature of the priority direction of the development of science and technology of the Republic "formation of a system of social, legal, economic innovative ideas of an informed society and a democratic state and ways to implement them."

